

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA QADRIYATLARNING O‘RNI VA ROLI

*Botir Uzokov*¹

Annotatsiya: Maqolada insoniyat paydo bo‘lgandan boshlab, o‘zining ma’naviy va ma’rifiy qarashlarini milliy qadriyatlari asosida shakllantirib borishi, xususan, jamiyat hayotida qadriyatlarning rivojlanishi va shakllanishida ushbu xalqlarning milliy qadriyatlariga qanchalik sodiqligi va ularni asrab-avaylashi ko‘zga tashlanishi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: salohiyat, intellektual-ma’naviy qobiliyat, dialektik, xulq-atvor, fazilat, barkamollik, qadriyatlar.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlar tizimida qadriyatlar alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonning mohiyatini chuqurroq tasavvur qilishda maqsadi insonni, jamiyatni, moddiy, ma’naviy boyliklarni avaylab-asrash va rivojlantirishga qaratilgan ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning roli nihoyatda kattadir. Muhtaram yurtboshimiz SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ta’kidlaganlaridek: “Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish YAngi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat’iy davom ettirmoqdamiz”. Mamlakatimiz “Inson qadri va manfaatlari uchun” degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgari bormoqda[1].

Prezidentimiz “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asarida masalaning ushbu jihatiga alohida e’tibor qaratish asnosida “Aslida esa, avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsad-muddaosi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi va “Davlat inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor”, deya bejiz ta’kidlamagan. Ayni ana shu xulosa tariximizda birinchi marta siyosiy tuzum va tizimlar amaliyotida uzoq vaqt amal qilgan “Davlat — jamiyat — inson” paradigmasining “Inson — jamiyat — davlat” shaklidagi tayanch g‘oyaga aylanishi uchun asos bo‘ldi va “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ushbu masaladagi metodologik tamoyillar har tomonlama isbotlab berildi. SHu nuqtai nazardan, yangilanayotgan O‘zbekiston hayotida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va bugungi Taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadini eng qisqa bayon qilish zarur bo‘lsa, bu — “Inson — jamiyat — davlat” tarzida ifodalanayotgan tayanch g‘oyani, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, degan aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat[2].

Bunda ta’limning vazifasi fuqarolik burchlari, mustaqillik g‘oyalari, demokratik qadriyatlarga sadoqatli erkin va mustaqil fikrlaydigan shaxsni voyaga etkazishdan iboratdir. Ta’limni yangicha tushunish, shaxs qadriyatini uning erkinligi bilan uyg‘unlashtirish, ta’limni insonparvarlashtirish va gumanitarlash kabi tamoyillar asosida shaxsning intellektual madaniyatini tarkib toptirish mumkin. Buning natijasi o‘laroq, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta’limning yangi qadriyatlari yuzaga keladi. Aslida fanda “Ilmiy qadriyatlar” va “fan qadriyatlari” mohiyatan bir ma’noli tushunchalardir. Buyuk nemis faylasufi I.Kant bilim, fikr va e’tiqod tushunchalarini bir-biridan farqlash an’anasini faol

¹ Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsent botiruzokov1957@mail.ru



qo‘llab-quvvatlagan va birinchi bo‘lib bilim va qadriyat tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini ko‘rsatgan edi. Bilim va qadriyatni bir-biridan farqlash qadriyatni ilmiy asosda o‘rganishni va bilimni, fanni qadriyat sifatida anglashni istisno etmaydi, balki taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlarimizda va jonli tilda diniy qadriyatlar, badiiy-estetik qadriyatlar, demokratik qadriyatlar mustahkam o‘rin egallay boshladi. Ma‘naviy qadriyatlarning muhim elementlari bo‘lgan axloqiy, diniy, badiiy-estetik, siyosiy, huquqiy va shu kabi qadriyatlar mohiyatini ilmiy asosda tadqiq etish borasida talaygina yutuqlarga erishildi. Ilmiy qadriyatlar ma‘naviy qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi va tayanch qadriyat sifatida o‘zining qator xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari bilan ajralib turadi.

Jahon ilm-fani tarixida chuqur iz qoldirgan ulug‘ ajdodlarimiz o‘zlarining o‘lmas asarlarida ilm-fanning ahamiyati, xususiyati, kuch-qudrati haqida qimmatli g‘oyalarni ilgari surganlar. XI asrda yashab ijod qilgan buyuk vatandoshimiz YUsof Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” (“Saodatga eltuvchi bilim”), Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bedil singari o‘nlab va yuzlab mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy asarlarida inson baxt-saodati, farovonligi faqat ilm sharofatidan, barcha baxtsizlik va kulfatlar ilmsizlik, jaholat tufayli ekanligini dalillar bilan isbotlashga harakat qilganlar.

Milliy mustaqillik tufayligina xalqimiz birinchi marta o‘zining boy ma‘naviy qadriyatlaridan bahramand bo‘lish, ilm-fanni qadriyat sifatida anglash, jahon ilm-fani ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ allomalarni e‘zozlash, qadrlash imkoniga ega bo‘ldi.

Yangi O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimiz ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishga, ilm-fanni ravnaq toptirishga qaratilgandir. Ilmiy qadriyatlarning ma‘naviy qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni va rolini belgilashdan oldin uning tub mohiyati, tarkibi va funksiyalari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, ilmiy qadriyatlarning nisbiy ekanligini ta‘kidlash joizdir.

Ilmiy qadriyatlar – kishilardagi intellektual-ma‘naviy qobiliyat va iste‘dodni ro‘yobga chiqarish, ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o‘rganish, voqelikni tadqiq etish orqali yangilik va kashfiyotlar yaratishga imkon beradigan g‘oyalar, asarlar, o‘quv va ilmiy muassasalar, olimlar jamoasi, ilm ahllari majmuasidir. Ilmiy qadriyatlar keng qamrovli falsafiy tushunchadir. Bu tushuncha fandagi vorisiylik, an‘anaviylik, novatorlikni o‘zida dialektik tarzda uyg‘unlashtiradi. Ilmiy qadriyatlar tarkibiga eng avvalo insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan barcha allomalarning o‘lmas asarlarini kiritish mumkin.

Ilmiy qadriyatlar komil inson shaxsini shakllantirishning muhim olmili bo‘lib, ayniqsa, ta‘lim jarayonida kishilarda ijobiy axloqiy sifat va fazilatlar shakllanadi.

Ta‘lim inson tabiatini tuzatadi va uni yaxshilaydi. Platon o‘z zamondoshlari xulq-atvori yomon ekanligini ko‘rib barcha ijtimoiy ishlardan voz kechgan va shunday deb yozgan edi: “Vatan bilan munosabatda bo‘lishda xuddi ota-onalarga bo‘lgan kabi munosabatda bo‘lish kerak, ya‘ni unga zulm o‘tkazish emas, balki uni ko‘ndirish, uni haqorat qilish emas, balki iltimos qilish lozim”. Olimlar o‘z manfaatlari va xavfsizliklarini vatan manfaatlari va sharafi yo‘lida qurbon qiladilar. Boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki fan inson aqlining mustahkam emasligini, baxtning beqarorligi va o‘zgaruvchanligini, ruh afzalligi va o‘z majburiyatlari ahamiyatini haqqoniy tushunish bilan qurollantiradi. SHuning uchun ham ular “Men o‘zimga nima foyda keltirdim” degan prinsip bilan emas, balki “Men senga qanday foyda keltirdim” degan prinsipga amal qilib yashaydilar.

Fan aqlni hech qachon bir joyda qotib qolmaslikka undaydi, o‘z kamchiliklari bilan murosa qilmaslikka chaqiradi, uni faol harakatga, barkamollikka da‘vat etadi. Ilm-fan insonni fazilatli qilibgina qolmay, qudratli va matonatli ham qiladi. Ta‘lim inson tabiatini ulug‘vor qiladi. Ilmi kishilar salobatli va sirli bo‘lib ko‘rinadilar. Albatta, bunday muhtasham koshonalar uni yaratgan kishilardan



uzoqroq yashashi mumkin. Biroq abadiy emasdir. Axir, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur asarlari necha asrlardan beri yashayapti-ku! Bu davr ichida qancha saroylar, toj – taxtlar, ibodatxonalar, qasrlar yo‘q bo‘lib ketmadi. Buyuk daholarning g‘oyalari kitoblarda abadiy yashaydi, ular vaqt sinovlariga sabot bilan bardosh beradi. Ular mangu yangilanish qudratiga egadirlar. Buning boisi shundaki, ilmiy qadriyatlar umuminsoniy axloqiy qadriyatlar (halollik, rostgo‘ylik) bilan bog‘liqdir. Samarali ilmiy – ijodiy faoliyatni axloqiy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Faqat fan uchungina xos bo‘lgan qadriyatlar ichida ilmiy haqiqatni izlash, uni himoya qilish alohida o‘rin tutadi.

SHu jihatdan olganda, YAngi O‘zbekistonni barpo etishda qadriyatlarning o‘rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 78 - sessiyasidagi nutqi //“YAngi O‘zbekiston “gazetasi, 2023 yil 20 sentyabr №192 (981).
2. SH.Mirziyoev. “YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, T.:”O‘zbekiston” nashriyoti,2021 yil.
3. Узоқов, Б., & Хидиров, Х. И. (2022). КОРРУПЦИЯНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ, МАЗМУН-МОЎЖИЯТИ, УНГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и социум, (9 (100)), 654-657.
4. Узоқов, Б. (2022). АЛИШЕР НАВОЙНИ АНГЛАШ ФАЛСАФАСИ. RESEARCH AND EDUCATION, 262.
5. Узоқов, Б. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. ТА’ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 347-350.
6. УЗОҚОВ, Б. (2023). БУНЁДКОРЛИК, ЯРАТУВЧАНЛИК, ҲАР ДОИМ ЎҚИШ ВА ИЗЛАНИШДА МУЖАССАМДИР. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(5), 10-15.
7. Узоқов, Б. (2023). ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ-ДОЛЗАРБ ВАЗИФА СИФАТИДА. Экономика и социум, (1-2 (104)), 525-528.
8. Uzokov, B., & Xidoyatov, Z. (2024, February). MAHALLA-XALQ VA DAVLAT O‘RTASIDAGI ISHONCH KO‘PRIGI SIFATIDA. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 2, pp. 307-310).
9. Узоқов, Б. (2022). HISTORICAL WORLDVIEW AS A CRITERION OF NATIONAL IDENTITY. In КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ И НАРОДНОЕ ИСКУССТВО: СОХРАНЕНИЕ И АКТУАЛИЗАЦИЯ В ЦЕЛЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА (pp. 308-314).
10. Uzokov, B. (2022). RESPONSIBILITY OF PARENTS AND CHILDREN IN FORMING A HEALTHY FAMILY ENVIRONMENT. Scientific progress, 3(6), 27-30.
11. Uzokov, B., & Mahmudova, U. (2024). JADIDLAR MEROSI VA JADIDCHILIK HARAKATIGA YANGICHA YONDASHUV-DAVR TALABI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 4(37), 254-257.
12. Botir, U., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8, 37-40.
13. Abdurashidovich, T. M., & Botir, U. (2020). YOUTH EDUCATION IS A KEY FACTOR OF THE COUNTRY'S WELL-BEING. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education, 1(5), 338-342.
14. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.



15. Yaxyaevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(3), 37-40.
16. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 464-469.
17. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАЪНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. *ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 351-355.
18. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2023). МА'НАВИЯТ ЖАМИЯТ ХАЙОТИНИНГ ЖОНИ ВА РУHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 503-506).
19. Yaxyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(1), 161-168.
20. Yaxyaevna, R. B., & Nurbek, A. (2024, February). KELAJAGIMIZNI YOVUZ KUCHLAR QO'LIGA BERIB QO'YISHGA HAQQIMIZ YO'Q. In *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 32-36).
21. Rashidova, B. Y. (2023). YOSHLARNI OILAVIY ХАЙОТГА ТАЙЙОРЛАШДА МАХАЛЛАНING TUTGAN O'RNI.
22. Yaxyoevna, R. B. (2022, March). WAYS AND WAYS TO PREVENT POVERTY (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN). In *E Conference Zone* (pp. 39-42).
23. Yakhyaevna, R. B., & Tulembaevna, M. S. (2024). Education of Youth in the Spirit of Patriotism. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 338-342.
24. Kuvanovich, R. K. (2023). ATTENTION TO EDUCATION IN THE CHISHTIYA SECRET. *Research Focus*, 2(2), 111-114.
25. Quvanovich, R. Q. (2021). The Moral Importance of Humanity and Patriotism in Chistiya and Kubraviya. *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 98-103.
26. РАЗЗОҚОВ, Қ. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. *ЭКОНОМИКА*, (9), 542-545.

